

O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARING TADBIRKORLIGINI YO'LGA QO'YISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Saidova Subhinigor Azizovna

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti

“Bank ishi” kafedrası 3-kurs tayanch doktoranti

subhinigorsaidova@gmail.com

[+998971102111](tel:+998971102111)

Annotatsiya

Maqolada mamlakat iqtisodiy hayotida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ayollar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, banklar tomonidan xotin-qizlarga ajratilayotgan kreditlarni ahamiyati o'rganilgan. Shu bilan birga, xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirish hamda bu jarayondagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari, banklar tomonidan ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy taklif va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlarning faolligini oshirish, ayollar tadbirkorligi, imtiyozli kreditlar, oilaviy tadbirkorlik, kreditlash, kredit riski, kafolat fondi, garov ta'minoti, kredit tarixi, foiz stavkasi.

Аннотация

В статье исследуется важность банковского финансирования женского предпринимательства а также подчёркивается важность льготных кредитов, предоставляемых банками женщинам предпринимателям коммерческими банками Узбекистана. В то же время автором определены существующие проблемы в этом процессе и разработаны практические предложения по развитию женского предпринимательства с помощью финансовой поддержки женского предпринимательства со стороны банков.

Ключевые слова: повышение активности женщин, женское предпринимательство, льготное кредитование, семейный бизнес, кредитование, кредитный риск, гарантийный фонд, залог, кредитная история, процентная ставка.

Abstract

The article explores the importance of bank financing of women's entrepreneurship and also highlights the importance of preferential loans provided by banks to women entrepreneurs by commercial banks in Uzbekistan. At the same time, the author identifies the existing problems in this process and develops practical proposals for the development of women's entrepreneurship with the help of financial support for women's entrepreneurship from banks.

Keywords: increasing the activity of women, women's entrepreneurship,

preferential loans, family business, lending, credit risk, guarantee fund, collateral, credit history, interest rate.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev YeTTB Boshqaruvchilar kengashining 32-yillik yig'ilishidagi ma'ruzasida bu borada "Biz Yangi O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini yanada qo'llab-quvvatlash, ularning g'oya va tashabbuslarini ro'yobga chiqish uchun teng imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratyapmiz" deb ta'kidlab o'tganlar.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga barcha bo'g'indagi har bir davlat organi, tashkiloti va korxonasida, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi, sud tizimida va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda boshqaruv xodimlari orasidagi xotin-qizlarning ulushini 2030 yilga qadar 30 foizga etkazish talabi davlat korxonalarining ijro organlari, shu jumladan direktorlar kengashi va kuzatuv kengashlarining tarkibini shakllantirishda ham tatbiq etilishini ta'minlash topshirilgan.[4]

Zero, mamlakatimiz aholisining qariyb o'n yetti milliondan ko'proq qismi xotin-qizlardan iborat. Shu jihatdan, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasida tadbirkorlik faoliyati bilan band bo'lgan ayollarning ulushi kichik biznes vakillari umumiy sonining 25 foiziga etgan va yaqin istiqbolda bu ko'rsatkichni 40 foizga etkazish maqsad qilib olindi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollarni tadbirkorlikka keng jalb qilish va ularning faoliyatini tadqiq qilish borasida bir qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar izlanishlar olib borishgan. Amerikalik ayollar tadbirkorligi bo'yicha ekspert Odra Shallal XXI asrda ayollar tadbirkorligi butun jahon, hattoki Yaqin Sharq va Afrika iqtisodiyotining o'sishida hal qiluvchi bo'g'inga aylanganligi, Yevropa Ittifoqi davlatlari ham bu haqiqatni tan olganligi, lekin o'qimishli, o'zlarining biznes g'oyalariga ega tadbirkor ayollar ko'p sonli bo'lishiga qaramay, ularning tadbirkorlik faoliyatlarini yo'lga qo'yishlarida to'siqlar mavjudligi, tadbirkor ayollarning ko'pi maishiy sohada, ya'ni ularning 65 foizga yaqini go'zallik va sog'liq industriyasida mehnat qilayotganligi haqidagi ma'lumotni keltirib o'tgan [14].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar N. Yu. Ivanov, M. P. Sinzak, M. A. Petrakov, N. Yu. Bagaeva, S. S. Stepanovalarning fikricha, ayol o'z tadbirkorlik faoliyatini tanlashda ikkita asosiy mezonga amal qilishi mumkin deb hisoblashadi: 1) o'z-o'zini band qilish va repetitorlik xizmatlarini ko'rsatish, maktab yoshidagi bolalar uchun ovqatlanish va dam olish faoliyatini ko'rsatish, xasta va (yoki) qariyalarga g'amxo'rlik qilish vazifalarini bajarish va boshqalar. 2) ayollarning kichik biznesini tashkil qilishi

va "ish beruvchi" sifatida ayollarning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirish orqali o'z qarorlari uchun javobgar bo'lishlari. [7]

The Women's Venture Capital Fund asoschisi Monika Dodining fikricha, "Tadbirkor ayollar konservativ va ehtiyotkor bo'lib, xavf va daromad o'rtasidagi muvozanatni saqlashga e'tibor qaratishadi, bu esa ayniqsa inqiroz davrida yanada qimmatli hisoblanadi" deb hisoblaydi. [8].

Senat raisi Tanzila Norboeva, «Ayollar erkaklar kabi iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Xotin-qizlar stereotiplar va yakkalesh tufayli yaratilgan chegaralar va to'siqlarni yengib o'tishga qodir. Ayollarimiz biznes, siyosat, ilm-fan va boshqa sohalarda erkaklar kabi muvaffaqiyat qozona oladi»[9] deb hisoblaydi.

Annaeva N.R.[10]ning fikricha, O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi alohida jihatlariga asoslanadi, muammolar ayollarning oiladagi jamiyatlardagi mavqeyini oshirishga qaratilishi kerak.

Iqtisodchi Aripov O.A[11] ning ilmiy tadqiqotlarida ayollarning tadbirkorlikdagi faolligi masalalari ma'lum darajada nazariy ahamiyat kasb etgan.

X. Abduramanov Sh. Zokirov [12]larning tadqiqotlari xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasi tadqiq qilingan va mualliflar O'zbekiston sharoitida amalda qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqishgan.

Bu borada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda kichik biznes va tadbirkorlik hamda kasanachilikdagi xotin-qizlar faoliyatiga e'tibor qaratilgan, biroq respublikamizda xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirish masalalari borasida muammolarning mavjudligini ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini asoslab beradi.

METODOLOGIYA

Maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umum-iqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni takomillashtirishda olimlar va soha vakillarining iqtisodiy qarashlari, ularning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 17 mln.dan ziyod qismini xotin-qizlar tashkil etadi, tadbirkorlikda ayollarning ulushi esa kichik biznes vakillari umumiy sonining 25 foiziga teng. Ushbu yo'nalish oldida turgan ustuvor vazifalardan biri tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida xotin-qizlar ulushini 40 foizga yetkazishdir.

Hozirda, asosiy muammolardan biri tadbirkor ayollarni moliyalashtirishdagi yetishmovchilikdir. Tegishli moliyaviy yordamsiz ko'plab ayollar o'z bizneslarini boshlay olmasliklari muammosidir. Ushbu muammoni hal qilish uchun hukumat va

moliya institutlari ayollarning kapitalga kengroq kirishini ta'minlash uchun kerakli chora-tadbirlarni ko'rishlari kerak.

Yana bir muammo – ayollarning tadbirkorlik faoliyatidagi muammolar va to'siqlar haqidagi ma'lumot va xabardorlikning yetarli emasligidir. Moliyaviy savodxonlik dasturlari ayollarga o'z moliyasini qanday boshqarishni va o'zlarini diskriminatsiyadan himoya qilishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Qolaversa, oilalarga ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishning ahamiyati haqida ma'lumot berish mavjud to'siqlarni bartaraf etishga va ayollarning biznesda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.



1-rasm. Ayollarni o'z biznesini yuritishdagi asosiy to'siqlar¹

O'zbekistonda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi PQ-122-son "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va boshqa ushbu sohada normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish zarur.

Jumladan, respublikamizda kasanachilik va hunarmandchilik yo'nalishida yangi ish boshlayotgan xotin-qizlar uchun tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, rivojlantirish, takomillashtirish hamda ularga uslubiy yordam berish maqsadida ta'lim tashkilotlarida tajribali kasanachi va hunarmandlarni jalb etgan holda Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan kasb-hunarga o'qitish kurslari tashkil etish yo'lga qo'yilgan. Bunda, ta'lim tashkilotlarida kasb-hunarga o'qitilgan har bir bitiruvchi xotin-qiz uchun sarflangan o'qitish xarajatlarining 70 foizi, biroq BHMning 5 barobaridan oshmagan qismi davlat tomonidan qoplab berilmoqda.

¹ Rasm muallif tomonidan ishlangan

Ishsiz xotin-qizlar tadbirkorlik subyekti sifatida (zamonaviy milliy liboslarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish) davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng bino va inshootning dastlabki uch oylik ijara to'lovi 2024-yil 1-yanvardan boshlab BHMning 10 baravarigacha miqdorda qoplab berilishi belgilangan. Mablag'lar Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi tomonidan ajratiladi [6].

2024-yil 1-yanvardan boshlab:

xotin-qizlarning haq to'lanadigan jamoat ishlari asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida ish yurituvchi bo'lib ishlashiga 11 oygacha muddatga ruxsat etildi;

tashkilot (ish beruvchi) tomonidan ish o'rinlari zaxiraga qo'yiladigan ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifalariga oilaviy (maishiy) zo'ravonlik natijasida jabrlanganlar ham kiritildi;

ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning uy-joylarini ta'mirlash uchun qurilish materiallarining eng yaxshi takliflarni tanlash orqali xarid qilinishiga ruxsat berildi.

Xususan, bu borada qator tegishli normativ me'yoriy hujjatlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 2024 yil 7 martdagi "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-122-son qarori [4]ga muvofiq, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan uch yillik imtiyozli davr bilan yetti yil muddatga yillik 14 foiz stavkada jami 100 million AQSh dollari ekvivalentida, shundan AT «Xalq banki»ga 35 million AQSh dollari, «Biznesni rivojlantirish banki» ATBga 35 million AQSh dollari va «Mikrokreditbank»ATBga 30 million AQSh dollari miqdorida kredit resurslari ajratilishi belgilandi.

O'zbekiston Prezidentining Prezidentining 2024-yil 7-martdagi PQ-122-son "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq Savdo-sanoat palatasi, AT «Xalq banki», «Biznesni rivojlantirish banki» ATB va «Mikrokreditbank» ATBda amalga oshiriladigan tadbirlar quyidagilar [4]:

tashabbuskor xotin-qizlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashish;

mahallalarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish;

xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni sotish;;

kooperatsiya asosida loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish;

loyihalar amalga oshirilishini kuzatib borish va ayol tadbirkorlar bilan doimiy muloqot qilishni nazarda tutuvchi xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilishi belgilangan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5 martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-son qarori[5]ga asosan xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan 3 yilgacha va 6 oygacha imtiyozli

davr bilan yillik 14 foiz stavkada 33 million soʻmgacha kreditlar ajratilishi koʻrsatilgan.

Kreditlar quyidagi dasturlarni muvaffaqiyatli oʻzlashtirgan xotin-qizlarga beriladi:

mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi maʼqullangan dasturlar asosidagi oʻquv kurslari;

bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining “Ishga marhamat” monomarkazlari, kasb-hunarga oʻqitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga oʻqitish maskanlari va Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari yoki nodavlat taʼlim muassasalarining kasbga oʻrgatish oʻquv kurslarining maxsus oʻqitish dasturlari.

Kreditlar bogʻdorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish uchun 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga, chorvachilik (qoramol, qoʻy, echki) uchun 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga har bir mahallaga birlashtirilgan hokim yordamchisining tavsiyalariga muvofiq tuman (shahar) Oilaviy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash markazining asoslantirilgan va natijadorligi aniq hisob-kitob qilingan holdagi qarori asosida beriladi.

Shuni ham alohida taʼkidlash kerakki, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 apreldagi “Ogʻir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi boʻlgan, kam taʼminlangan, farzandlarini toʻliqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-285-son qaroriga muvofiq ogʻir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi boʻlgan, kam taʼminlangan, farzandlarini toʻliqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi belgilangan.

Uy-joyga muhtoj xotin-qizlarga beriladigan arzon uy-joylar toʻlovining:

10 foizi Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash davlat maqsadli jamgʻarmasi, talabgor ishlayotgan tashkilot va boshqa manbalar hisobiga (boshlangʻich badal sifatida);

90 foizi banklarning imtiyozli kreditlari hisobiga qoplanishi belgilab qoʻyilgan.

1-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar (asosiy yoʻnalishlar boʻyicha mlrd. soʻm)

Asosiy yoʻnalishlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar, jami	48 389,7	48 839,1	69 770,3	73 009,4
Ajratilgan mikrokreditlar	10 194,3	13 395,1	15 404,7	17 270,5
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida shundan:	6 078,5	7 692,2	9 893,3	9 198,2
Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun	3 602,1	6 170,7	9 094,4	9 864,3
Xizmat koʻrsatish va servis sohasini rivojlantirishga	5 959,8	16 309,5	11 513,3	10 134,1
Tadbirkor ayollarni qoʻllab quvvatlashga	4 895,9	6 397,7	9 402,5	13 313,6
Xorijiy kredit liniyalari hisobidan (mln. AQSh dollari)	2 139,0	1 407,0	1 531,3	1 150,7

Xotin-qizlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish borasida 2018-yildan buyon oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, joriy yilning yanvar-avgust oylarida qariyb 194 mingga yaqin aholi va tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan 3,3 trln.so'm miqdoridagi imtiyozli kredit mablag'larining 1,6 trln.so'mi (49 foiz) 109 mingga yaqin ayol tadbirkorlarga taqdim etilgan.

Hozirda ayollar o'z iqtisodiy huquqlarini amalga oshirish jarayonida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda va shu sababli ular yashirin iqtisodiyotga o'tishga majbur bo'lmoqda. Shu bois yangi strategiya va dasturlar ayollar tadbirkorligining asosiy muammolarini hal etishga, jumladan, ularning moliyaviy, rasmiy mehnat bozorlari va qo'shilgan qiymat zanjirlariga, o'z biznes maqsadlariga mustaqil ravishda erishish uchun texnologiya va bilimlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy o'sishning muhim shartlaridan biri bo'lib, xotin-qizlarning faol ishtiroki hisoblanadi va iqtisodiy yuksalish va farovonlikka xizmat qiladi. Ijtimoiy yo'nalishdagi loyihalar va tadbirkorlikning ayollar tomonidan amalga oshirilishi rivojlanib bormoqda. Ko'plab tadbirkor ayollar qishloq joylarda mehnat qilishi va ayollar tadbirkorligini "yashil iqtisodiyot" orqali rivojlantirish, ayollarning yanada faol ishtirok etishi uchun katta salohiyatga egaligi bilan alohida ahamiyatga molik sanaladi.

Shuningdek bugungi kunda, ayollarga barcha iqtisodiy huquqlardan foydalanish imkoniyatini yaratish, ularning mehnat qilish huquqlarini huquqiy himoya qilish, ayollarni fan, muhandislik va matematikaga yanada kengroq jalb qilish zarurati ortgan.

Ammo xotin-qizlar salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishni cheklovchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi omillar mavjud. Bular iqtisodiy imkoniyatlarning teng emasligi, ayollarning uy-ro'zg'or va oila boshqaruvidagi nomutanosib mas'uliyati, jamiytdagi gender me'yorlari kabi omillarni misol qilishimiz mumkin. Aynan shu bois ham ayollarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish alohida e'tibor, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

Xotin-qizlarning iqtisodiy tashabbuslarini rivojlantirish va rag'batlantirishga yondashuv davlat, xususiy, moliyaviy, xalqaro va notijorat institutlarining samarali o'zaro hamkorligiga asoslanishi natijasida, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 07-martdagi PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5899498>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-iyuldagi PQ-329-son "Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori. <https://lex.uz/docs/-6126565>

4. O'zbekiston Prezidentining Prezidentining 2024-yil 7-martdagi PQ-122-son "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-6831827>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarni faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/67048197>.

7.Н. Ю. ИВАНОВ, М. П. ЦЫНЗАК, М. А. ПЕТРАКОВ, Н. Ю. БАГАЕВА, С. С. СТЕПАНОВА Женское предпринимательство: возможности и противоречия. <https://doi.org/10.24182/2073-6258-2023-22-3-117-130>

8.<https://www.royalgazette.com/other/news/article/20171124/businesswoman-shares-her-success-story/>

9. «O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda» — Tanzila Norboeva. <https://bugun.uz/ozbekistonda-ayollar-tadbirkorligin>.

10. Annaeva N.R. Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti (O'zbekiston misolida" Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2018.

11.Aripov Oybek Abdullaevich. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ayollarning o'rni. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil.

12.X. Abduramanov, Sh.Zokirov Xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasi. <https://cyberleninka.ru/article/n/hotin-izlarning-tadbirkorlik-va-biznes-faoliyatini-llab-uvvatlash-b-yicha-orizh-tazhribasi>

13. A. Azlarova. Bank xizmatlari ommabopligini oshirishning dolzarb masalalari (2024). Iqtisodiyot va ta'lim / 2024-yil 1-son. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/download/1420/1290/1841>

14. <https://academicsresearch.com/index.php/rnsr/index>

15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari